



HISTORICAL AND CULTURAL FACTORS OF TOURISM DEVELOPMENT IN JIZZAKH REGION

Ozodbek Nematov

*Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Jizzakh, tourism, Zomin, historical and cultural factors.

Received: 02.10.24

Accepted: 04.10.24

Published: 06.10.24

Abstract: This article analyzes the historical and cultural factors of tourism development in Jizzakh region, as well as existing tourism objects in the region and their importance in the development of internal and external tourism. In the article, the reforms implemented in a number of tourism sectors, such as ecotourism, pilgrimage tourism, and the factors of the gradual development of the tourism sector in the region are detailed.

JIZZAX VILOYATIDA TURIZM RIVOJLANISHINING TARIXIY-MADANIY OMILLARI

Ozodbek Ne'matov

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so'zlar: Jizzax, turizm, Zomin, tarixiy-madaniy omillar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax viloyatida turizm rivojlanishining tarixiy-madaniy omillari hamda viloyatdagi mavjud turizm obyektlari va ularning ichki va tashqi turizm rivojidagi ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada Jizzax viloyatidagi ekoturizm, ziyorat turizmni kabi bir qator turizm sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar va hududda turizm sohasining tadrijiy rivojlanish omillari ham atroflicha yoritilgan.

ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ

Озодбек Нематов

*Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Джизак, туризм, Зомин, историко-культурный фактор.

Аннотация: В данной статье анализируются историко-культурные факторы развития туризма в Джизакской области, а также существующие туристические объекты в регионе и их значение в развитии внутреннего и внешнего туризма. В статье подробно рассмотрены реформы, реализуемые в ряде туристических отраслей, таких как экотуризм, паломнический туризм, а также факторы постепенного развития туристической сферы в регионе.

KIRISH

Jizzax viloyati - geografik jihatdan O‘zbekistonning markaziy qismidagi viloyat bo‘lib, mamlakatning sharqiy va g‘arbiy qismini o‘zaro bog‘lab turadi. Viloyat respublikaning qadimiy shaharlari va turistik markazlari bo‘lgan Toshkent va Samarqand viloyatlari kesishmasida joylashgan. Viloyat markazi Jizzax shahri geografik jihatdan O‘zbekistonning janubiy va shimoliy-sharqiy qismlarni bog‘laydigan transport uzelida muhim rol o‘ynaydi. Jizzax shahridan O‘zbekiston avtomobil yo‘li (Toshkent - Termiz) va Toshkent-Samarqand temir yo‘li o‘tadi. Bunday holat turizm imkoniyatlari rivojlanishiga va mintaqqa iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jizzax shahri respublika markazida joylashganligi sababli xorijiy mamlakatlar bu hududdan o‘tadigan yo‘llar orqali iqtisodiy, savdo va ijtimoiy aloqalarni amalga oshirdilar. Jizzax viloyatida tog‘ tizmalari, tekisliklar, adirlar va Nurota, Morguzar va Turkiston yon bag‘rlari o‘zaro tutashib, noyob iqlim va tabiiy landshaftlarni vujudga keltirdi. Bundan tashqari, tabiat kengliklari, buloqlar, g‘orlar, Zomin, Baxmal, Forish tumanlaridagi tarixiy yodgorliklar mintaqaning qulay joylaridan biri ekanligini anglatadi. Bu esa turizm sohalarini rivojlantirish imkoniyatlarini vujudga keltiradi.[1]

ASOSIY QISM

Tabiiy-geografik omilga ko‘ra Sangzor daryosi bo‘yidagi Ilono‘tti tog‘ yo‘lagi Nurota tizmasini Molguzar (Morguzar) tizmasidan ajratib turadi. Nurota tizmasining janubiy-g‘arbiy tarmog‘i Oqtog‘ bo‘lib, uning eng baland cho‘qqisi Taxtko‘h deb atalib, u dengiz sathidan 2005 metr balandda joylashgan.[2] Morguzar va Nurota tog‘ tizmasi janubdan shimoliy-g‘arbgan tomon cho‘zilgan bo‘lib, geografik-hududiy jihatdan Samarqand, Navoiy va Jizzax viloyatlari hududida joylashgan.[3] Tog‘ shimol tarafidan Haydarko‘l (Aydarko‘l)ga, shimoliy-g‘arbdan Qizilqum cho‘llariga tutashgan, tog‘ning g‘arbiy qismi tekislik, sharqiy qismi esa Nurota vohasi orqali Oqtog‘, Qoratog‘ va shu orqali Qo‘ytosh tog‘lariga tutashib ketadi.[4]

Viloyat hududida yirik turistik tog‘ landshafti hisoblangan Nurota va Qo‘ytosh (Nurota tog‘ tizmasining davomi) tog‘lari joylashgan bo‘lib, tog‘ning ikki tarafida kattaligi jihatdan

minataqaning yirik Forish hamda G'allaorol tumanlari joylashgan. Mintaqaning geografik jihatdan qulayligi qadimdan sayohatchilar hamda tadqiqotchilarning doimo e'tiborida bo'lib kelgan. Tadqiqotchilarning fikricha Xitoy bilan Evropani bog'laydigan «Ipak yo'li» ning bir tarmog'i Nur, Mingbulloq botig'i hamda Xorazm orqali Volgagacha borgan, shu orqali g'arb va sharjni bog'lovchi ikki yo'lni o'zaro tutashtirgan. Biri Zarafshon vodiysi orqali o'tgan bo'lsa, ikkinchisi Nur vohasidan o'tgan.[5]

Bu erdag'i turistik marshrutlar, xususan, Jizzax viloyati shaharlari, tabiat va dam olish maskanlari, Morguzar (Molguzar), Nurota va Turkiston tog' tizmalari, havzaning betakror landshaftlari, Sangzor daryosi hududning turistik boyligi hisoblanadi. Zomin, Baxmal va Forish hududlari esa katta tabiiy hududlar sifatida mintaqaning diqqatga sazovor joylari hisoblanadi. Bu ernalning tog'li va qir adir landshafti turizm marshrutlarini ochish imkonini beradi.[6]

Agar muhim turistik manzil sifatida vohaning Zomin va Baxmal tumanlarining tog'li hududlari qarag'ay o'rmonlari bilan qoplanganligiga e'tibor qaratilsa, o'ziga xos flora va fauna shakllanganligiga guvoh bo'lish mumkin. Mamlakatda yagona Zomin tog' o'rmon qo'riqxonasi ularni muhofaza qilsih, asrash va ilmiy tadqiqot olib borish uchun qulaydir. Qo'riqxonada YOshi 180 va hatto 400 yil bo'lgan archa daraxtlari, "Qizil kitob"ga kiritilgan Turkiston silovsinlari, oq ayiqlar, arxarlar, qor qoplondari va boshqa hayvonlar uchraydi. Viloyatda 1976 yilda tashkil etilgan Zomin milliy bog'i, asosan shimoliy yon bag'rlarida Turkiston tog'lari, dengiz sathidan 1000-4000 metr balandlikda Morguzar tog'lari joylashgan. U 45590 hektar maydonni egallaydi. Bugungi kunda Jizzax viloyatida turizm bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar 11 ta, 2019 yilda esa ular 18,5 ming kishiga xizmat ko'rsatadi. 2019 yilda Jizzax viloyatida mehmonxonalar va shunga o'xshash dam olish joylarida joylashtirilgan dam oluvchilar soni 38894 kishini tashkil etgan edi, shundan 1683 nafari MDH davlatlaridan, 1675 nafari xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan.[7]

Viloyatda sohaning rivojlanish tarixiga e'tibor qaratilsa, XX asr 90-yillarida turizm sohasi hali obdon takomillashmagan, tashrif buyurayotgan xorijiy va mahalliy turistlar nisbati anchagina past darajada edi. Buning asosiy sababi o'sha kezlarda davlat ushbu sohaga davlat siyosati darajasida e'tibor qartamagan, turizm infrastrukturasi hali past, tarixiy-madaniy yodgorliklar ahvoli qoniqarli darajada bo'lgan. Masalan arxiv ma'lumotlari, ya'ni tarixiy raqamlarga ko'ra, 1998 yilda viloyatdagi yagona "Jizzax RO" turistik tashkiloti ko'magida viloyatga bor-yo'g'i 204 ta turist tashrif buyurgan. Viloyatga tashrif buyurgan mahalliy turistlar soni atigi 24.700 tani tashkil qilgan.[8]

Yoki boshqa hududlarga turist sifatida ketganlar soniga e'tibor qaratilsa, masala yanada oydinlashadi. Masalan, 2000-yilda viloyatdan xorijga 103 ta, MDH davlatlariga 75 ta, viloyatlarga 15,629 kishi turist sifatida yuborilgan.[8] Bu albatta past ko'rsatkichdir. Sababi qachonki mamlakat xorijlik turistlar, ishbilarmonlar, investorlarga, fan-madaniyat xodimlariga o'z

eshiklarini ochmas ekan yoki o‘z fuqarolariga xorijga chiqishga imkoniyat yaratib bermas ekan sohaning rivojlanishi anchagina murakkabdir.

Endi 1998 yilda viloyatdagi mehmonxonalarga xorijiy va mahalliy turistlarning tashrifiga e’tibor qaratilsa, masalan Jizzax shahridagi nufuzli “O‘zbekiston” mehmonxonasiiga bir yilda tashrif buyurgan turistlar soni 25410 tani tashkil qilib, xizmatlar hajmi 14106,0 so‘m, bir kunlik mehmonxona haqqi 203 so‘mni, mehmonxonaning rentabellik darajasi 25, % ni tashkil etgan. Bu esa o‘sha paytlarda viloyatda turizm rivoji va undan tushayotgan daromadlar, byudjetga tushayotgan soliq to‘lovleri hajmining past darajada ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa o‘z o‘rnida turistik madaniy yodgorliklarni ro‘yxatga olish, reestrga kiritish ishiga etarli darajada e’tibor berilmaganligini, ularning umumiyligi holatining ijobiligini darajada bo‘lmaganligini tasdiqlab turipti.

To‘g‘ri, bu borada albatta viloyatning ayrim tumanlarida turizmni rivojlantirish borasida olib borilgan ijobiligini chora tadbirlarni ham qayd etib o‘tish zarur. Chunki mahalliy aholi vakillari, ayrim tashabbuskor insonlar, mahalla oqsoqollari ko‘magida ayrim turistik manzillar qayta tiklandi, ta’mirlandi, ularga alohida e’tibor qaratildi. Masalan, Jizzax viloyatinning Zomin tumanida 107 ta madaniy meros ob’ekti (shulardan 72 ta arxeologiya, 32 ta me’moriy va 3 ta monumental san’at yodgorliklari) davlat muhonzasiga olingen bo‘lib, jumladan To‘rto‘ltepa, Qo‘rg‘ontepa arxeologiya yodgorliklari, Ko‘kto‘nliota, Ho‘jayi Serob ota va Tog‘terak ota ziyoratgohlari turizmni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etdi.

1998-2001 yillarda hashar asosida qayta tiklangan va 2002 yil 25 martdagi Vazirlar Mahkamasi qarori asosida o‘z faoliyatini boshlagan “Xo‘jai serob ota” ziyoratgohi va uning hududida tashkil etilgan kichik etnografik muzey hamda ziyoratgohning yuqori qismida joylashgan Peshag‘or g‘ori ham muhim turistik manzildir. Hanuzgacha bu er ziyorat turizmi ob’ekti sanaladi.

Ayniqsa Forish va Arnasoy tumanlarida 33 ta madaniy meros ob’ekti (shulardan 15 ta arxeologiya, 14 ta me’moriy va 4 ta monumental san’at yodgorliklari) davlat muhonzasiga olingen bo‘lib, jumladan Gumbaz-Oqtepa(Oyim), Abdullaxon tepe arxeologiya yodgorliklari, Band (Xonbandi), Xasan ota ziyoratgohi va Muhammad Sharif Girix kushod qabri, muqaddas bulog‘i va masjidi me’moriy yodgorliklari turizmni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etdi.[9]

Viloyatda turizmni yanada rivojlantirish maqsadida 2012-yilda Jizzax viloyati Zomin shahridagi «O‘lkashunoslik muzeyi» ni ta’mirlash va tiklash ishlari amalga oshirildi. Ushbu ishlar «Fazliddin me’mor obida» mas’uliyati cheklangan jamiyat tomonidan amalga oshirildi. Zomin o‘lkashunoslik muzeyini rekonstruksiya qilish 2013-yil 15-yanvarda tugallangan bo‘lsa, 2017-yilda Jizzax viloyati Nuriddin Xo‘ja madrasasini, Jizzax viloyati «Xo‘jai Sarob Ota» obektini, 1991-2018 yillarda Garasha qishlog‘idagi “Jondahor Ota” tarixiy obektini ta’mirlash va tiklash ishlari amalga oshirildi.[9]

Ushbu ta'mirlash obodonlashtirish ishlarining uzviy davomi sifatida 2014 yil 5 dekabrdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 335-sون Qaroriga ko'ra viloyatdan tarixiy-madaniy ob'ektlarni ro'yxatga olish bo'yicha tarixiy, badiiy yoki madaniy qimmatliligi tufayli garov va ipoteka qo'llanilishi mumkin bo'lмаган ob'ektlar ro'yxati shakllantirildi. Ro'yxatga Jizzax viloyatidan 49 ta, Zomin tumanidan 77 ta, SH.Rashidov tumanidan 2 ta, Forish tumanidan 14 ta, Zarbdor tumanidan 12 ta, G'allaorol tumanidan 42 ta, Yangiobod tumanidan 19 ta, Baxmal tumanidan 59 ta arxeologik ob'ektlar kiritildi. Arxeologik ob'ektlar xronologik jihatdan mil.avv. 2500 yillardan (Sayhontosh (Taqalitosh) rasmlari) to XX asr boshlarigacha bo'lgan davrni qamrab olgan. 2019 yilda tasdiqlangan moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk ob'ektlari milliy ro'yxatida Jizzax viloyati bo'yicha 427 ta madaniy merosning ko'chmas mulk ob'ektlari turistik manzil sifatida kiritildi.[10]

Albatta, yangi O'zbekiston davriga kelib viloyatda turizm sohasi yangi bosqichga ko'tarildi, xorijlik turistlar uchun mamlkat eshiklari ochildi. 2023 yil ma'lumotlarga ko'ra viloyat turistik ob'ektlari orasida 427 ta madaniy ob'ekt davlat muhofazasiga olingan, shundan 100 tasi tarixiy obidalar, 268 tasi arxeologik yodgorliklar, 59 ta yodgorlik. 2021 yil holatiga ko'ra, viloyatda 4190 o'rinni 171 ta turar joy ob'ektlari mavjud bo'lib, shundan 33 ta mehmonxona, 7 ta yotoqxona, 2 ta kemping, 1 ta dam olish maskani, 11 ta sanatoriya va pansionatlar, 115 ta mehmonxona mavjud. 2023 yil ma'lumotlarga ko'ra bu erda 512 o'rinni 54 ta turar joy muassasi tashkil etildi. SHulardan 3 mehmonxonalar, 13 ta yotoqxona 50 ta mehmon uylari mavjud.[11]

Viloyatdagi turistik tarixiy-madaniy yodgorliklar. Jizzax viloyatdagi turistik tarixiy-madaniy yodgorliklar, ayniqsa muzeylar faoliyatini quyidagicha qayd etish mumkin: SHarof Rashidov yodgorlik muzeyi (1992-yil 22-fevral), Hamid Olimjon va Zulfiya muzeyi (1992-yil 28-avgust), Hamraqul Nosirov "SHon-shuhrat" muzeyi (1994-yil 21-iyun), Haydarbek Abdujabborov "SHon-shuhrat" muzeyi (1991-yil 14-fevral), G'allaorol tuman "SHon-shuhrat" muzeyi (2003-yil 27-fevral), Zomin tuman tarixi muzeyi (1993-yil 3-dekabr), Baxmal "Xalq ijodiyoti va tarixi" bo'limi (2003-yil 27-fevral), Jizzax viloyati prokuraturasi tarix muzeyi (2006-yil 11-sentyabr), Zomin tuman Pshag'ar O'lkashunoslik muzeyi (2014-yil 3-iyul), Jizzax shahar 10-umumta'lim Maktab tarixi muzeyi (1998-yil), Jizzax viloyati Yangiobod tumani 2-umumta'lim maktab tarixi muzeyi (2014yil 23-iyun), Jizzax viloyati Ichki ishlar boshqarmasi muzeyi (2007-yil 21-avgust), JDPU tuzilmasidagi "Qatag'on qurbanlari xotirasi muzeyi" (2018-yil 31-avgust), Forish tuman "O'lkashunoslik muzeyi" filiali (2021-yil 21-noyabr), Mirzacho'l tuman "O'lkashunoslik muzeyi" filiali (2020-yil 21-noyabr) kabilardir.

Viloyatning Zomin tumanida 107 ta madaniy meros ob'ekti (shulardan 72 ta arxeologiya, 32 ta me'moriy va 3 ta monumental san'at yodgorliklari) davlat muhozasiga olingan bo'lib, jumladan To'rto'ltep, Qo'rg'ontepa arxeologiya yodgorliklari, Ko'kt'o'nliota, Ho'jayi Serob ota va

Tog‘terak ota ziyyaratgohlari turizmni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Forish va Armasoy tumanlarida 33 ta madaniy meros ob’ekti (shulardan 15 ta arxeologiya, 14 ta me’moriy va 4 ta monumental san’at yodgorliklari) davlat muhonzasiga olingan bo‘lib, jumladan Gumbaz-Oqtepa(Oyim), Abdullaxontepa arxeologiya yodgorliklari, Band (Xonbandi), Xasan ota ziyyaratgohi va Muhammad SHarif Grukushoh (Girix kushod) xonaqosi va masjdi me’moriy yodgorliklari turizmni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa Forish tumanida bir qator turistik maskanlar, ziyyaratgohlar mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:

- Mavlono Muhammad SHarif ziyyaratgohi;
- Hazrati Zaynulobidin ziyyaratgohi;
- Xo‘ja bog‘bon ota ziyyaratgohi;
- Hazrati eshon xalifa ziyyaratgohi;
- Narvon ota ziyyaratgohi;

Xonbandi to‘g‘oni va Mojirum archasi kabilarni misol qilib keltirish mumkin.[9] Albatta viloyatdagi mazkur turistik ob’ektlar davlat muhofazasiga olingan. Ammo ularni ta’mirlash va obodonlashtirish ishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki tarixiy-madaniy yodgorliklarning aksariyati o‘rtasidagi asrlar va undan keyingi davrlarga taaluqli bo‘lib, ular t’mirga muhtoj holatda edi. Natijada mustaqillik yillarda bu borada katta hajmda ishlar bajarildi.

Masalan, viloyatdagi turistik ob’ektlarni ta’mirlash ishlariga muvofiq ular tarixiga murojaat etilsa, dastlab 1990-yilning mart-aprel oylarida Forish tumani Garasha qishlog‘ida shu qishloqlig qo’soqol Saidmurod hoji Tolipov tashabbusi bilan Muhammad SHarif xonoqosida me’moriy va arxeologik tadqiqotlar o‘lchash ishlari triangulyatsiya metodi asosida bajarilgan. 1991-yilda Muhammad SHarif yodgorligida o‘lchash va tekshirish ishlari bajarilgan. 1992-yilda Jizzax shahridagi Xo‘ja Nuriddin madrasasi me’moriy yodgorligida (o‘sma vaqtida Jizzax viloyati qo‘g‘irchoq teatri bo‘lgan) restavratsiya ishlari boshlanishidan oldin tadqiqotlar olib borilgan. 1993-yilda O‘zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi O‘zbekiston ilmiy-tadqiqot va loyiha-qidiruv restavratsiya instituti O‘zbekiston Respublikasi Jizzax viloyati Baxmal tumani Novqa qishlog‘idagi Novqa-ota masjidida dastlabki ishlar amalga oshirildi. 1994-yilda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi «O‘zbekta’mirshunoslik» instituti tomonidan Jizzax viloyati G‘allaorol tumani Avliyo qishlog‘ida joylashgan Said ibn Vaqqos masjidida dastlabki ishlari bo‘yicha topshiriqlar amalga oshirildi.

XULOSA

Tadqiqotlarga ko‘ra olimlar tomonidan odamlarning yuqorida qayd etilgan tarixiy-madaniy turistik ob’ektlarga sayohatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘rganish maqsadida anketa so‘rovi o‘tkazildi. So‘rov natijalari shuni ko‘rsatganki, 522 respondentdan 156 nafari tarixiy joylarga, 150

nafari mahalliy joylarga borishini xohlashlarini uqtirishgan. Qolgan 143 tasi musiqa festivallariga tashrif buyurishni va mahalliy aholi bilansuhbatlashishni, 136 nafari muzeylarga tashrif buyurishni, 126 nafari to‘ylarga, 120 nafari qishloq hudulariga, 106 nafari “ekoturlar” va “tog‘li hududlar”ga tashrif buyurush qiziqarli ekanligini bildirishgan. Raqlar va pikniklarga 96 nafar sayyoh, 82 nafar sayyoh esa hunarmandchilik mahsulotlariga qiziqish borligini bildirishgan.

Turistik maskanlar aholi o‘rtasidagi nufuziga qarab respublika, viloyat, tuman (shahar) yoki qishloq (mahalla) miqyosidagi ziyyaratgohlarga bo‘linadi. Ammo, ziyyaratdagi mavjud ziyyaratgohlar qanday mavqeega ega bo‘lishidan qat’iy nazar, ularning hammasi tub aholi qalbiga asrlar davomida ma’naviy-ma’rifiy va ruhiy taskin berib, bir g‘oya atrofida birlashtirib, turli xil marosimlar o‘tkazadigan muqaddas manzilgohlarga aylanganligini hozirgi kunlarda ham kuzatamiz. Aslida ham muqaddas joylarni ziyyarat qilish odamlarni yomon yo‘llardan uzoqroq yurishga, hamma vaqt ham insofli-diyonatli bo‘lishga, o‘zidan faqat yaxshiliklar qoldirish singari hayrli ishlarga undab kelganligini tarixiy-kundalik hayot yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мусаев Б. Абдимуродова М, Маркаева С. Жиззах вилояти шаҳарларининг ривожланишида туризмнинг роли. // “Экономика и социум” №6(85) ч.2 2021.
2. Нурота тоғи / Ўзбекистон миллӣ энциклопедияси. – Т., 2003. Т. 6. – Б. 420.
3. Тошекнтоев А. Жиззах вилояти. – Жиззах, 1994. – Б. 6-7.
4. Исмоилзода Шавкат. Судур бобо ёхуд Нурато тарихидан саҳифалар. – Т., 2005. – Б. 80.
5. Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг маъмурий-ҳудудий тузилиши. – Т., 1996. – Б. 48-56.
6. Исмоилзода Шавкат. Судур бобо ёхуд Нурато тарихидан саҳифалар. – Б. 80.
7. Мардонов Б. Б. Сфера обслуживания и занятость. Монография Т-2013
8. Ўз РМА. М-141 фонд, 1-рўйхат, 221-иш, 6- варак.
9. Нематов О. Фориш тумани зиёратгоҳлари. Т. “Turon iqbol”.2019.-Б. 8-33..
10. Ахмеджонов Н Ўзбекистонда XX аср ўрталари ва XXI аср бошларида маданий мерос объектлари ва музейлар тарихи (Жиззах вилояти мисолида) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси автореферати. Т. –Б. 13.
11. Усманов М. Географические аспекты организации туризма в Джизакской области. // Экономика и социум. №1 (104) -2. 2023.